

NUTQ RIVOJLANISHIGA SALBIY TA'SIR ETUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR

(BOLALAR VA O'SMIRLAR MISOLIDA)

Safarova Dilafruz Salimovna

Navoiy davlat universiteti

“Psixologiya” kafedrası katta o'qituvchisi

Аннотация. Maqolada bolalar nutqini rivojlantirish borasida tarbiya sharoiti bilan bog'liq ba'zi muammoli masalalar xususida fikr yuritilgan. Bola nutqi o'z-o'zidan ravon, tushunarli va mazmunli bolib qolmaydi. Nutqning rivoji uchun, avvalo, sog'lom organizm, mohir tarbiyachi, sog'lom muhit zarurligi hayotiy misollar va ilmiy mulohazalar asosida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: nutq, duduqlanish, logofobiya, logonevroz, dismorfobiya, emotsional tanglik, mutizm, adiksiya.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, НЕГАТИВНО ВЛИЯЮЩИЕ НА РАЗВИТИЕ РЕЧИ

(НА ПРИМЕРЕ ДЕТЕЙ И ПОДРОСТКОВ)

Сафарова Дилафруз Салимовна

Ст.преподаватель кафедры «Психологии»

Навоийский государственный университет

Аннотация. В статье рассматриваются некоторые проблемные вопросы, связанные с условиями воспитания в развитии речи детей. Речь ребёнка не становится сама по себе беглой, понятной и содержательной. На основе жизненных примеров и научных рассуждений освещается необходимость здорового организма, умелого воспитателя и благоприятной среды для развития речи.

Ключевые слова: речь, заикание, логофобия, логоневроз, дисморфофобия, эмоциональное напряжение, мутизм, аддикция.

PSYCHOLOGICAL FACTORS NEGATIVELY AFFECTING SPEECH DEVELOPMENT

(BASED ON EXAMPLES OF CHILDREN AND ADOLESCENTS)

Safarova Dilafruz Salimovna

Senior Lecturer of the Department of Psychology

Navoi State University

The article discusses certain problematic issues related to the upbringing environment in the development of children's speech. A child's speech does not naturally become fluent, understandable, and meaningful on its own. The necessity of a healthy body, a skilled educator, and a supportive environment for speech development is explained through real-life examples and scientific reasoning.

Key words: speech, stuttering, logophobia, logoneurosis, dysmorphophobia, emotional tension, mutism, addiction.

Jamiyatimizning bugungi taraqqiyotida, kreativ fikr, ilg'or g'oyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Zotan, insonlar bir-birlari bilan o'ziga xos o'y-xayollari, mushohadalari, fikr yuritishlari, mustaqil fikrlash qobiliyatlari bilan ajralib turadi. Nutqda bizning ma'rifatimiz, ma'naviyatimiz, irodamiz, maqsad-muddaomiz, niyatimiz namoyon bo'ladi. Har bir kishining nutqi bolalik chog'idan boshlab o'sib boradi. Bola nutq yordamida insoniyat qo'lga kiritgan barcha yutuqlarni faol ravishda o'zlashtirib boradi. Inson tafakkurining ijtimoiy jarayonlarga bog'liqligining muhimligi sababli, bola rivojlanishi jarayoni gapirish va nutqni tushuna olish bilan vujudga keladi. Shuning uchun ham bola nutqini to'g'ri rivojlantirish muhim sanaladi. Qadimdan mutafakkirlar va olimlar tomonidan nutq o'stirish, nutq madaniyati, nutqdan foydalanish odobiga katta ahamiyat berilgan. Masalan, nutqda qalb, ong va sezgilarning uyg'unligi haqida Arastu ta'limoti, fikrning ezgulikka yo'naltirilishi haqida Abu Nasr Forobiy, insonparvarlikka yo'naltirilishi haqida Alisher Navoiy, nutqning mantiqiyliigi haqida Umar Xayyom, nutq signal tizimi haqida I.P. Pavlov, fikrning bosqichma-bosqich shakllanishi nazariyasini yaratgan P.Y. Galperin, nutqda umumlashtirish tushunchasi haqida - R. Davidov ta'limotlari mavjud.

Mashhur "Qobusnoma"da "barcha hunardin so'z hunari yaxshidur", deyilsa, Uilyam Metyuz "hamma qobiliyatlarning sarvari fikrdir", degan. Abdulla Avloniy "So'z insonning daraja va kamolini, ilm va fazlini o'l-chab ko'rsatadurg'on tarozisidir. Kishining fikr va niyati, ilm va quvvati, qadr va qimmatini so'zlagan so'zidan bilinur", yana bir asarida "Nutq tarbiyasi eng kerakli, ko'p zamonlardan beri taqdir qilinib kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyang'an, vijdonlariga yuklang'an muqaddas bir vazifadir. Bu tarbiya muallimlarning yordamiga so'ng daraja muhtojdirki, nutqning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog'liqdir" deb ta'kidlaydi. Shuningdek, psixolog-olimlaridan M. Davletshin, M. Vohidov, E. G'oziyev, V Karimova va boshqalar bola nutqining rivojlanishini tadqiqotlar jarayonida o'rganganlar.

Insonning nutqi uning ruhiy holatidan xabar beruvchi, kerak bo'lsa aql va tafakkuri darajasini ko'rsatib beruvchi, hissiyotini ifodalovchi muhim faoliyat shaklidir. Xo'sh, ana shu nutq qanday paydo bo'ladi? Uning rivojlanishi, aniq va ravon ifodalanishi qanday sharoitlar va omillarga bog'liq.

Tabiiyki, bola nutqi o'z-o'zidan ravon, tushunarli va mazmunli bolib qolmaydi. Nutqning rivoji uchun, avvalo, sog'lom organizm, mohir tarbiyachi, sog'lom muhit mavjudligi talab etiladi.

Kattalarning samimiy tabassumi va yoqimli ovozidan boshqa hech qanday qo'zg'atuvchi go'dakda shunchalik quvonch va shodlik his-tuyg'usini vujudga keltira olmasligini olim N.M. Askarina o'z tadqiqotlarida aniqlagan. "Bu go'dakning kattalar bilan munosabatining ilk va maxsus ko'rinishidir" - deydi oli-ma. Bu "Jonlanish" N.L. Figurin, M.P. Denisovalarning fikricha, his-tuyg'u bilan birgalikda g'uldirash (to-vush) bilan ifodalanadi. Asta-sekin artikulyar apparatning takomillashuvi natijasida bola tovushlarni o'zaro farqlay boshlaydi. Natijada faol

nutq alomatlari vujudga kela boshlaydi. Nutqning erta rivojlanishi bu bola ongi va tafakkurining taraqqiy etayotganligi va iqtidorning nishonasidan darak beradi. Modomiki, bola nutqi kattalarning samimiy munosabati va yoqimli ovozidan ta'sirlanish asosida vujudga kelar ekan. Uning rivojlanishi tushunarli, aniq, ravon bo'lish uchun ham kattalarning samimiy g'amxo'rliqi, bilimi, tez-tez muloqotda bo'lishi, eng asosiysi, oilada sog'lom psixologik muhitni saqlashi, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolaning ehtiyojlarini imkon qadar qondirishi, unga e'tiborli va mehribon bo'lishi talab etiladi. Afsuski, turli sabablarga ko'ra nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar ham uchrab turadi.

Nutqdagi nuqsonlarning asosiy turlari quyidagilar alaliya tug'ma soqovlik, afaziya - miya chayqalishi, boshning shikastlanishi tufaylinutqning buzilishi, afoniya - tovush talaffuzini yo'qotish psixologik afoniya-kuchli stress holatida ovoz chiqmasligi, shuningdek, nutq buzilishining hayotda eng ko'p uchraydigan turi duduqlanish va mutizm vaqtincha tildan qolish. Bu nuqsonlar natijasida bolalarning biri duduqlansa, yana biri juda tez gapiradi - tushunib bo'lmaydi, ba'zilar nihoyatda kamgap bo'ladi, boshqasi qattiq hayajonlansa gapirolmay qoladi.

Duduqlanish yuqorida sanab o'tilgan nuqsonlar orasida ko'proq uchraydi. Ba'zan ota-onalar bunga jiddiy e'tibor berishmaydi. Hali o'z-o'zidan to'g'ri gapirib ketadi, aqlini tanib uyalsa to'g'ri gapiradi degan xulosalarga borishadi. Bunday bamaylixotirlik noo'rin albatta. Duduqlanish kasallik emas, balki turli kasalliklarning belgilaridan biridir. Duduqlanish qaysi kasallik doirasida uchrashiga qarab turli sabablar asosida vujudga keladi va turlicha namoyon bo'ladi. Duduqlanishni ikki asosiy turga bo'lish mumkin, organik, nevrotik. Nevrotik duduqlanish o'z nomidan ham ma'lumki, asab tizimi faoliyatining buzilishidan yuzaga keladi. Nevrotik duduqlanish nevrozning bir qismi sifatida turli sabablar tasirida vujudga keladi. Aniqrog'i tarbiya va muhit sharoitining xususiyatlariga bo'liq. Doimo uning asosiy sababi: kelishmovchiliklar, ruhiy iztiroblar, kuchli ruhiy-asabiy zo'riqishlar. Nevrozlar ko'pincha bolalar va o'smirlarda uchraydi. Chunki ularning psixikasi hali yetilmagan, nimjon, noxush psixik ta'sirlardan himoyalaniş tajribasi yaxshi shakllanmagan. Kattalarda hech qanday asorat qoldirmaydigan psixik lahzalardan bolalar va o'smirlar osongina shikastlanadilar. Ana shunday shikastlanish tufayli bola duduqlanadigan bo'ladi.

Yana shunday psixik shikastlanish - logofobiya uchraydiki, uning ta'sirida nutqda qo'rquv paydo bo'ladi. Keyinchalik duduqlanish ro'y beradi. Bola masxara qilingan bo'lsa, sharmanda bo'lgan vaziyatlar bo'lgan bo'lsa psixologik travma olgan bo'ladi. Buning natijasida o'ziga ishonchsizlik yuzaga keladi. Ba'zan esa tug'ma xarakterga oid hadikchanlik bo'lishi ham mumkin. Bunday holatda ko'proq xuddi hamma bolafa qarayotgandek tuyuladi, yurak urishi tezlashadi, bola terlaydi, qizaradi. Bunday holatlarni oldini olish uchun bola gapirmaslikka harakat qiladi. Shuning uchun ham bola qattiq hayajonlanganda, o'ziga og'ir botadigan narsani eslaganda unda nutq nevrozi - logonevroz paydo bo'ladi va duduqlanish uning tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu holat o'zgaruvchan bo'lib, bola xotirjam vaziyatda yaxshi gapiradi, hayajonlanishi bilan yana tili tutilib, duduqlanadi.

Kattalar shuni e'tiborga olishi kerakki, bolalikdagi qo'rqinchli voqealar (bolalarni boshqara olmay ularni turli yo'q narsalar bilan qo'rqitish, oiladagi janjallar), ta'lim va tarbiyadagi katta bosim(ortiqcha talabchanlik,kattalarning bolalarcha qaysarligi-murosasizlik), kuchli jazo,gapirishga kam imkoniyat berish, masxara qilish lo'nda qilib aytganda emotsional tanglik holatlari logofobiyaga olib kelishi mumkin.

Ko'p hollarda bolalar yaxshi ko'radigan kishisidan yoki yaxshi ko'radigan muhitidan ajratilganda uzoq yoki kamroq davom etadigan gunglik mutizm paydo bo'ladi. Bunda bola ba'zan umuman gapirmaydi, uyqusi buziladi, ishtahasi yo'qoladi. Bu holat xalq tilida –“sog'inib ichikiyapti”- deb yuritiladi. Masalan: oiladagi sevib erkalatilgan, hammaning diqqat-e'tiborida bo'lgan bola bog'chaga borganda uni bog'cha opalar sovuqqina kutib olishadi, qo'pollik bilan bo'lar-bo'lmasga tanbeh berishadi, bola kutgan e'tibor o'rniga qo'pol va kinoyali nigohlardan bolada norozilik paydo bo'ladi. Natijada u bog'chada jo'rta gapirmaydi. Yoki oilada er va xotin o'rtasida bo'ladigan janjallardagi affektiv holatlar, tajovuzkorona xatti-harakatlar bolani kuchli qo'rquvga, astenik holatlarga soladi. Agar psixik shikastlanish qisqa vaqtli bo'lsa, duduqlanish tez o'tib ketadi, aksincha bo'lsa, duduqlanish odat tusiga aylanib qoladi. Nevrotik duduqlanishga uchragan bolani tinchlantirish, og'ir kechinmalardan xalos etish, e'tiborini nutqidagi nuqsonga qaratmaslik kerak, bunda ota-onalarning roli katta, albatta.

Ayon bo'lib turibdiki, yuqoridagi muammolarning barchasi ta'lim va tarbiya sharoitlarining xususiyatlaridan yuzaga keladi. Bola tarbiyasiga mas'ul bo'lgan ota-ona, mutaxassis qolaversa barcha insonlar bolalar psixologiyasiga oid bilimlardan voqif bo'lishlari shart.

Garchi duduqlanishning murakkab turi organik duduqlanishni tuzatishning psixologik imkoniyatlari nihoyatda kam bo'lsada, organik duduqlanish haqida qisqacha to'xtalamiz. Organik duduqlanish bu nuqson tilning tug'ma chala rivojlanganligi yoki miya chayqalishi, shamollashi tufayli vujudga keladi. U nasliy omillar bilan bog'liq bo'lishi ham mumkin. Masalan: shunday oilalar borki, ulardagi duduqlanish avloddan-avlodga o'tib keladi. Ba'zan ma'lum yoshga yetib nutq asta-sekin rivojlanib duduqlanish o'z-o'zidan yo'q bo'lib ham ketadi. Bolalarni miya shikastlanishidan imkon qadar himoya qilish, yiqilishlar, shikastlanishlarga asrashga e'tibor berish, shamollashning surunkaliga aylanishining oldini olish lozim. Deyarli bir necha joylarda turar joy binolari oldida, marketlar, davlat xizmatlari binolarida bolalar uchun maxsus o'yingohlar yaratilgan. Lekin uylarda hovlilarda bolalar uchun maxsus maydoncha yoki xonalar kamdan-kam oilalarda mavjud. Mehmonxonalarni qurish va jihozlashga kattagina mablag' sarflanadi, lekin bolalar uchun hovlining ma'lum bir qismi yoki, xonalar va ularning jihozlari maxsus e'tiborga olinavermaydi. Natijada bolalarda ham psixologik, ham jismoniy shikastlanishlar ko'p uchraydi. Ayniqsa oiladagi kattalar o'rtasidagi kelishmovchiliklar bolalar ruhiyatini sindirishga ko'proq sabab bo'lmoqda.

Logonevroz bolalar, o'smirlar o'z nutqidagi nuqsonlardan doimo qattiq azob chekadi. Nevrozga aloqador duduqlar esa o'z nuqsonidan iztirob chekmaydi, nutqidagi o'zgarishlarga e'tibor bermaydi. Shuning uchun duduqlanishni turli

ko'rinishida turlicha davo choralari ko'riladi. Agar logonevrozni psixoterapevt davolasa, nevrozga aloqador duduqlanishni logoped bartaraf etadi Duduqlanishlar o'rtasidagi farqni bilmastik yomon oqibatlarga olib keladi.

Logonevroz bolaga nutqidagi nuqson eslatilmasligi kerak, bu uning asabini yanada qo'zg'atadi. Nevrozga aloqador duduqlanuvchi boladan intizomni, o'z nutqini yaxshiroq nazorat etishni talab qilish kerak. Bu esa ko'p jihatdan ota-onaga bog'liq. Nevrotik va nevrozga xos duduqlanishi o'smirlik davriga qadar aniqlash kerak Hammaga ayonki, o'smirlar psixikasida kuchli psixologik o'zgarishlar sodir bo'ladi. 12-13 yoshlarda o'smur o'zini-ozini tanqid qiladigan va tanqidga ta'sirchan bo'lib qoladi. O'smirlikdagi dismorfobiya holati nutq bilan bo'g'liq bo'lishi ham mumkin. Bunda tashqi ko'rinishidan xavotirlanish nutq organlariga bog'liq bo'lmasada, lab, og'iz, tish, ovoz bilan bog'liq shubhali fikrlar paydo bo'ladi. Misol uchun: -“tilim mayib”, “ovozim kulgili”, “tishlarim qiyshiq”, “og'zim qiziq” – singari fikrlar logonevroz-duduqlanish, logofobiya-ko'pchilik oldida gapirishdan qo'rqishni yuzaga keltirishi mumkin. O'smir o'zining nutqidagi nuqsonidan iztirob chekib, uyalib yuradi, ayniqsa, notanishlar orasida kamgap bo'lib qoladi, hazilni ko'ngliga o'gir oladi.

Duduqlanishning maxsus turlaridan yana biri taqlid qilish natijasida paydo bo'ladi. Bunday duduqlanish odatda kichik bolalarda va qattiq ta'sirchan, uzoq vaqtgacha duduqlar bilan muloqotda bo'lgan odamlarda ro'y beradi. Bu odam logopedning yordamiga muhtoj emas. To'g'ri ta'lim-tarbiya berilsa, taqlidiy duduqlanish o'tib ketadi.

Bugungi kunda duduqlanishning yana bir turiga aqliy zo'riqish sabab bo'layapti. Bunda mutaxassisning aralashuvi zarur bo'lmaydi. Lekin muammoning vaqtida oldi olinmasa, jiddiy oqibatlarga olib keladi. Bunday holat televizorni ko'p ko'radigan, telefonda uzluksiz turli o'yinlarni o'ynab nihoyatda ko'p turli-tuman axborotlarni tinglab, ularni o'zlashtirmaydigan bolalarda ro'y berishi mumkin. Bugungi kunda ovoqli, rangli tasvirlari bilan telefon va televizor yoshiga xos xususiyatga ega bo'lgan qiziquvchan bolalarni osongina uzoq muddat, hattoki batamom o'ziga jalb qilmoqda. Tabiiyki bunday vositalar kuchli emotsional ta'sir ko'rsatish xususiyatiga ega. Lekin ongi endigina shakllanayotgan bolalarning texnik vositalar bilan uzoq muddat davom etadigan bir yoqlama ya'ni ko'rish va eshitish orqali nutqsiz amalga oshirayotgan muloqotlari ularda nutqning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bog'chalarda ham bunday vositalardan foydalanish vaqti aniq chegarasiga ega bo'lishi nazoratga olinishi lozim. Uyda ham ota-onalar o'z telefonlaridan bolalar oldida faqat eng zarur ehtiyoj bo'lgan vaziyatlardagina foydalanishlari lozim. Bola tinchib o'zini-o'zi band qilib o'tirishi maqsadida aslo telefonlarni ularga berib qo'yish yaramaydi. Qisqa muddatli tet-tez o'zgaruvchan materiallar bolalar diqqatini o'ta ixtiyorsiz qilib qo'yadi. Ya'ni bola uzoqroq muddatga cho'zilgan multfilmni ko'rishga diqqati etmaydi. Buning oqibatida bilish jarayonlarining ixtiyoriyligi yo'qoladi, irodasizlik shakllanib boradi. Bunday bolalar nutqli muloqotga layoqatsiz bo'lib boradi. Vertual muloqotga addiksiya-tobe bo'lib qolish xavfi ortadi. Hech sababsiz kun bo'yi o'chmaydigan televizorlar axborotlarga

loqaydlik kayfiyatini paydo qiladi. Axborotlar miqdori kamaytirilsa (yosh xususiyatlarini e'tiborga olgan holda), kun tartibi to'g'ri tashkil etilsa bunday nutqda uchraydigan muammolar tezda o'tib ketadi. Go'daklik, ilk bolalik, maktabgacha, kichik maktab yoshdagi bolaning nutqi ham miqdor, ham sifat jihatidan ancha takomillashadi. Bolalarning nutqini o'sishi oilaning madaniy saviyasiga, ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya ishlarining to'g'ri, tizimli va samarali tashkil etilganligiga bog'liq.

L.S.Volkovanutqdagi buzilishlarni bartaraf etish bo'yicha ota-onalarga bolaning nutqini to'xtatmaslik, to'g'rilamaslikni tavsiya etadi. Toki bola o'z fikrini erkin ifoda etsin deydi olim. Ota-onalar bolaning so'zlashuvi uchun qulay muhit yaraishi: tinch va bosimsiz muhit. Bolani diqqat bilan tinglash uning nutqini qo'llab-quvvatlashi lozimligini ta'kidlaydi. maslahatlar beradi. D.B. Elkoninning ko'rsatishicha lug'at boyligining miqdoriy o'sishi, bevosita bolaning hayot sharoitlari va tarbiyalanish xususiyatlariga bog'liq. Shu o'rinda aytish muhimki, nafaqat lug'at boyligining miqdoriy o'sishi, balki nutqning sifat jihatdan o'sishi ham bola kamol topayotgan muhitning hayot sharoitlari va tarbiyalanish xususiyatlariga bog'liq. Yana shuni ta'kidlash joizki, bolani ta'limiy va tarviyaviy muhitini to'g'ri tashkil etish nafaqat psixologik bilimlarga balki sabr bilan ajratiladigan vaqtga ham bog'liqdir. To'g'ri hozirgi kunda ota-onalarning ijtimoiy faolliklari ortib bormoqda, lekin inson hayotidagi eng asosiy boylik va mazmun uning farzandi hisoblanadi. Demak, bolani sog'lom dunyoga keltirish, sog'lom muhitda to'g'ri tarbiya berish orqali uning nutqini o'stirish ifodali, aniq, lo'nda va obrazli so'zlashishni shakllantirishga erishiladi. Shuningdek, bolalar nutqini o'stirish, tengdoshlari va kattalar bilan nutqiy muomala malakalarini shakllantirish orqali yuksak insoniy fazilatlar egasi sifatida so'zdan to'g'ri va o'rinli foydalanish, ya'ni nutq va xulq egasi bo'lish kabi ma'naviy-axloqiy sifatlar shakllantiriladi. Zero, ravon va mazmunli nutq sog'lom ruliyaatning yaqqol ifodasidir.

Adabiyotlar

1. G'oziyev E. Ontogenez psixologiyasi - Toshkent, 2002
2. Abdulla Avlomy Turkiy guliston yoxud axloq Toshkent, 1994-17b
3. Alimova G. Alimova E Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda tafakkur jarayonining nvojanishi // Pespublika ilnuy-amaliy konferensiyasi. Toshkent, 2012-415 bet.
4. Abdusamatova N Bolalarni itegratsiyalashgan ta'lim jarayonida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda tarbiyachining o'rni "Maktabgacha ta'lim" jurnalı 6/2012-B.2-3
5. Л.С. Волкова Логопедия для воспитателей 2008г-703стр
6. Sh. O. Aliyev Logopediya 1989-680 O'qituvchi.